

“BESH BOLALI YIGITCHA” ASARIDAGI MEHRIBON AKA OBRAZI

Usmonova Shahina Xudoynazar qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim

Yo'nalishi 3-21-guruh talabasi

Tel raqam: +998 90 899 28 02

**Annotasiya.** Ushbu maqola Xudoyberdi To'xtaboevning “Besh bolali yigitcha” asari va uning ahamiyati to'g'risida. Asar yoshlarni vatanga oilaga va aka ukalalariga muxabbat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bu asar hayotiyliigi, qahramonlarning harakatchanligi bilan ajralib turadi. U voqealarning tezkor, qiziqarli, fantaziyaga, yumorga boy ravishda echilishini talab qiladi.

**Kalit so'zlar:** badiiy adabiyot, bolalar adabyoti, obraz, janr.

---

**Kirish.**

Prezidentimiz ta'kidlaganidek “Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday engilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalaridir” (3). Kitob – eng qimmatli xazina. U insoniyat kashf qilgan eng buyuk kashfiyotlardan biridir. U ajdodlarning qimmatbaho ma'naviy merosini avlodlarga etkazib beruvchi dono ustozlarning eng sodda, ammo sabotlisidir. Kitobsiz hayotimizni tasavvur qilish, olamni anglash naqadar mushkul. U bizga bolaligimizdan hamroh bo'ladi, hayotning g'aroyib sir-sinoatlari bilan tanishtiradi, qiyin vaziyatlarda foydali maslahatlarni beradi, to'g'ri yo'l ko'rsatadi, o'z-o'zimizni anglashni o'rgatadi.

*Kitobning asosiy vazifalaridan biri* – bu ilm-fanning qimmatbaho durdonalarini asrlar osha saqlab qolish va kelgusi avlodga etkazib berish. Kitob bilan suhbat insonning kamolotga etishida muhim ahamiyatga ega. U insonni olg'a borishga chorlaydi (4).

Bolalar adabiyotida yozuvchilar tomonidan ularga mo'ljallab maxsus yo'nalishda yoziladi. Kattalarga atalgan ayrim asarlar ham bolalar ma'naviyatini boyitishga va ma'rifiy-estetik zavq olishlariga yordam beradi. Bolalar adabiyoti ham ijtimoiy ong shakllari va barcha mafkuraviy sohalar kabi, voqelik, hayotdagi turli ijtimoiy hodisalar hamda insoniyat turmushi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni o'ziga xos vositalarda badiiy aks ettiradi. Asarda bayon ettiriladigan voqelik hayotiy va tabiiy tasvirlanishi, haqqoniylik va badiiylikning mukammal birligi hamda obrazlarning kitobxon yoshi, ruhiyati, ongiga mos ravishda tushunarli va qiziqarli bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunda yosh kitobxon qalbida muayyan o'y-fikr uyg'otish, uning nafosatini o'stirishi va voqelikka nisbatan munosabat uyg'otish mumkin bo'ladi (1).

*Tadqiqot maqsadi.* “Besh bolali yigitcha” asaridagi bosh qahramon Orif obrazi tahlili.

*Muhokama va natijalar.* Besh bolali yigitcha asarida urush yillaridagi bolalik davri tasvirlangan bo'lib, unda o'smirlar hayotini yorituvchi, achchiq qismat hikoya qilinadi. Muallif asar qahramonlari timsolida o'zining va tengdoshlarining bolalik davrini yodga olgan. Asar qahramonlarining bolaligi, o'smirligi urushning og'ir davrlariga to'g'ri kelgan, shu bilan birga urushning og'ir ko'lankasi ularning bolaligi, o'smirligi va yoshligiga soya solgan, ularning murakkab hayot yo'llaridagi mashaqqatlarga duch kelishiga, shu bilan birga o'z maqsadlari uchun kurashishga undagan. Hayotning mashaqqatli sinovlarini o'zida aks ettirgan voqealar

ayanchliligi bilan birga tezkor, qiziqarli, fantaziyaga hamda yumorga boy ravishda bayon qilingan.

Asardagi kichik qahramonlarning etimligi, muhtojligi, darbadarligi fuqarolar urushi davridagi yosh tengqurlarimizning azob uqubatlariini yodga soladi va o'sha davr, zamonning o'ziga xosligi, jamiyati ruhiyatini ochib beradi.

*Bosh qahramon Orif* – nafaqat besh nafar go'dakning akasi, u qarovsiz bolalarning, o'z oilasining kichik yo'l boshlovchisi hamdir. Oila shamchirog'i o'chib qolmasligi uchun Orif o'z zimmasiga ulkan mas'uliyatni olgan. U otasidan qolgan hovlida ukalariga o'zi bosh bo'lib, ularni tarbiyalash, otasi va onasining ishlarini davom ettirishni oldiga maqsad qilib qo'ygan.

“Meni qishlog'imizdagi jamiki o'g'il bolalar yomon ko'rishadi, shuning uchun ham menga «besh bolali» deb laqab qo'yishgan.

Besh bolali deyishlariga, rostini aytsam, uncha jahlim chiqmaydi. Nega desangiz, chindan ham roppa-rosa beshta ukam bor. Beshoviniyam o'zim katta qilganman, opam traktorchi, urush boshlanganidan buyon kechasi-yu kunduzi dalada. Bolalar meni nega yomon ko'rishlarini aytsam, ular men tufayli yo opasidan, yo otasidan dakki eshitadi. «Sen ahmoq, kun bo'yi ko'cha changitib o'ynaysan, sen tengi Orif bo'lsa ukalariniyam o'ynatadi, uy ishlariniyam tinchitadi...» deb quloqlaridan cho'zishadi. Shoshmay turishsin hali, ukalarim eson-omon katta bo'lib, uyga qaraydigan bo'lib qolishsin, men ham shunaqangi o'yinqaroq bo'lib ketayki, shunaqangi qiziq o'yinlar topib o'ynayki, alam qilganidan sochlarini yulib olishsin. Hozir esa hecham o'ynay olmayman, o'yinga berilib ketsam, uydagi ishlarim qolib ketadi. Keyin opam xafa bo'lib qolishi mumkin. Men opamni yaxshi ko'raman, juda, juda ham yaxshi ko'raman, hecham xafa qilmasam, hecham yig'latmasam deyman. Opam ham meni yaxshi ko'radi: «Hayriyatam esim yo'g'ida seni tug'ib olgan ekanman, bo'lmasa, ahvolim nima kechardi» – deb, erkalatgani-erkalatgan. Ukalarim bo'lsa, yosh, Sulton endigina o'n ikkiga kirdi, Zulayho o'n birga, biz hali hammamiz ham bir-birimizdan bir yoshdan farq qilamiz. Sulton fe'ldor, ko'ngli xushlasa, eshakday ishlaydi, xushlamasa yana o'sha eshakka o'xshab, to'rt oyog'ini bir joyga tirab turaveradi. Zulayhoga o'zim ataylab ishni kam buyuraman, qiz bolalar nimjon bo'lishadi, nimjon bo'lgandan keyin ularni ehtiyot qilish kerak deb o'ylayman. Usmon ukam juda xayolparast, qozon-tovoq qilib o'tirib ba'zan o'choq boshida uxlab ham qolaveradi. Buning ustiga, shunaqangi ozg'inki, xuddi tandirga olov yoqadigan kosovga o'xshaydi. Kun bo'yi rasm chizgani-chizgan, qo'li ham ancha kelishib qolganga o'xshaydi. Shu ukamdan hammamizning ham umidimiz katta. Zo'r rassom bo'ladi deb o'ylaymiz. Shuning uchun ham unga hech ish buyurmayman. Bo'sh vaqti ko'p bo'lsa, ko'p chizadi, ko'p chizsa, tezroq kamolga etadi deb o'ylayman. Endigina besh yoshga kirgan Omon ukam bo'lsa temir qanot bo'lgan chumchuq bolaga o'xshab chirqillab, ovqat so'ragani-so'ragan. Shunaqangi mechkayki, hatto uxlaganda ham og'zini ochib uxlaydi, deng. Jajji singlim Robiya endigina ikki yoshga kiryapti...”(2). . Orif ota onasidan so'ng, oilaning katta farzandi sifatida ukalariga ham o'rnak, ham suyanchiq, yanayam mexrubon va g'amxo'r bo'lishi kerakligini his qilgan holda yosh bo'lishga qaramay, ushbu mas'uliyatni bo'yniga oldi va unga etishish yo'lida harakt qilishdan to'xtamadi.

Oriflar oilasi yaxshi odamlar orasida yashaydi, biroq hayot kabi haqiqat qissasi ham shafqatsiz va yaxshi odamlar hamma vaqt boshiga musibat tushgan bolalarga yordam qo'llarini cho'za olmaydilar. Bunda qahramonimiz yovuzlikka qarshi kurashib, dunyoni munavvar etuvchi yaxshilak, ezgulikning kuchi sifatida aks ettirilgan. Bolalarning Toshkentdan Qo'qonga- qadrdon qishloqlariga kelishidagi mashaqqatli yo'lida ezgulik yordam qo'llarini cho'zgani, yovuzlik esa xalaqat bergani yorqin aks ettirilgan.

*Xulosa.* Hayotda yaxshilik, xotirjamlik, ravon yo‘l emas, aksincha sinovlar insonni inson darajasiga ko‘taradi. Bu sinovlar achchiq bo‘lsada qahramonlarimizning qismatiga shular yozilgan ekan, ularning qat‘iyatini, jasorati vamaqadi yo‘lida kurashishni o‘rgandi.

Asar yoshlarni vatanga oilaga va aka ukalalariga muxabbat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bu asar hayotiyliigi, qahramonlarning harakatchanligi bilan ajralib turadi.

Besh bolali Orif achchiq sinovlarni boshidan kechirdi, u g‘olib bo‘ldi, zafar quchdi. U oilasini ukalarini tarqalib ketishdan, begonaga aylanib qolishdan saqlab qolishga erishdi.

**Adabiyotlar:**

1. Jumaboev Mamasoli. Uzbek bolalar adabiyoti: Oliy ukuv yurtlarining uzbek tili va adabiyoti fakultetlari talabalari uchun darslik. — T.: «Uzbekiston», 2001. - 242 b.
2. Xudoyberdi To‘xtaboevning “Besh bolali yigitcha” (sarguzasht roman). Toshkent. Yangi asr avlodi, 2009.- 160 b.
3. Shayqulov Hamza Shodievich, et al. “Bugungi kun kitoblari qanday bo‘lishi kerak”. International journal of recently scientific researcher’s theory, 2023, 1(1), 19–24., <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/41>.
4. Shodievich S. H., Roziqovna R. M. Oliy quv yurtlarida mashg‘ulotlar sifati va samaradorligini oshirishda ilmiy maqolalarning o‘rni // PEDAGOGS jurnali. Volume-25, Issue-1, January-2023 25(1), 52–55..